

## SAMARQAND VILOYATIDA ELEKTR ENERGIYASI XIZMATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

**Abduxamid Bektemirov**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
falsafa doktori*

**Rahimboyeva Shohida**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*

**Annostatsiya:** *Maqolada bugungi kunda Samarqand viloyatida elektr tarmoqlarida yuzaga kelayotgan isroflar va ularni bartaraf etishdagi muammolar keltirilgan. Energiya samaradorligiga oid tushunchalar barcha sohalarda o'z aksini topgan bo'lib ushbu maqolada ba'zi sohalarda elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish muammosi ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *iqtisodiyot, xizmatlar bozori, elektr energiya xizmatlari, elektr energiyasi isroflari, energiya sarfi, energiya tejamkorligi, texnik va hisobiy elektr energiyasi isroflari.*

**Annotation:** *In the article, the wastages occurring in the power grids in the Samarkand region today and the problems in their elimination are presented. Concepts of energy efficiency are reflected in all areas, and this article deals with the problem of efficient use of electricity in some areas.*

**Key words:** *economy, services market, electricity services, electricity waste, energy consumption, energy saving, technical and accounting electricity waste.*

**Аннотация:** *В статье представлены потери, возникающие сегодня в электросетях Самаркандской области, и проблемы их устранения. Концепции энергоэффективности отражены во всех сферах, и в данной статье рассматривается проблема эффективного использования электроэнергии в некоторых сферах.*

**Ключевые слова:** *экономика, рынок услуг, электрослужбы, отходы электроэнергии, энергопотребление, энергосбережение, технические и учетные отходы электроэнергии.*

### KIRISH

Bugungi kunda har bir milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita energiya resurslaridan samarali foydalanishga boshliqdir. Shu nuqtai nazardan, elektr energiyasi resurslaridan samarali foydalanish, isrofgarchiliklarni oldini olish va bu bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim masala hisoblanadi. Elektr energiyasining isroflari odatda bir necha sabablarga qarab yuzaga keladi, masalan, eskirgan energiya tarmoqlari, yarim yopilgan yoki buzilgan elektr tarmoqlari, tizimda kutilmagan nosozliklar hamda elektr tarmoqlarida tizimni qo'llab-quvvatlovchi vositalarning yetishmasligi kabilar shular jumlasidandir.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, birgina Samarqand viloyati bo'yicha olib borilgan hisob-kitoblarga ko'ra hududda elektr energiyasi yo'qotilishi 18 foizga yaqinni tashkil etadi, bu esa o'tgan yildagidan sezilarli darajada yuqoridir. Buning asosiy sabablaridan biri esa viloyatdagi ko'plab elektr tarmoqlari va podstansiyalar Sovet Ittifoqi davrida qurilgan va bugungi kunda modernizatsiyaga muhtoj holatda. Shuningdek, ushbu jarayonni yuzaga keltirayotgan ikkinchi sabab sifatida iste'molchilarning elektr energiyadan noratsional foydalanishga yo'l qo'yilayotganligini keltirib o'tishimiz mumkin.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Elektr energiyasi xizmatlarini ko'rsatishda tizimdagi muammolarni yechish, qurilishlarda energiya taqsimotini yanada samarali qilish, energiya taqsimotini qo'llab-quvvatlash, texnika va qurilmalarning energiya isroflarini minimallashtirish, elektr energiyaga qo'yilayotgan sarmoyalarni boshqarish va boshqa innovatsion yondashuvlar kabi chora-tadbirlar ko'rish mumkin. Bundan tashqari, elektr energiyani saqlash va tortish usullari, yuqori energiya xarajatlari qilish va energiya tasarrufi lozimli ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bular energiya isroflari bilan kurashish uchun muhim bo'lgan chora-tadbirlardir. Ishonchli va innovatsion yondashuvlar bilan, energitika sohasida isroflarni kamaytirishga qaratilgan maqsadlarga erishish uchun o'z vaqtida harakat qilishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyatida elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish bo'yicha qator choralari ko'rilmoqda. Jumladan, viloyatda elektr tarmoqlari va podstansiyalarni modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish ishlari olib borilmoqda, iste'mol qilingan elektr energiyasini yanada aniqroq hisobga olishni ta'minlaydigan yangi elektr hisoblagichlar o'rnatilmoqda, aholi o'rtasida elektr energiyasidan ehtiyotkorona va samarali foydalanish muhimligini tushuntirishga qaratilgan ma'rifiy ishlar olib borilmoqda hamda elektr energiyasini o'g'irlash holatlariga qarshi kurashish choralari kuchaytirilmoqda.

Samarqand viloyatida elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish quyidagilarga imkon beradi:

- Resurslarni sezilarli darajada tejash: Elektr yo'qotishlarini kamaytirish mintaqaga elektr energiyasini ishlab chiqarish va sotib olish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi;
- Energiya ta'minoti ishonchliligini oshirish: Infratuzilmani modernizatsiya qilish va elektr energiyasini hisobga olishning zamonaviy tizimlarini joriy etish hududni energiya bilan ta'minlash ishonchliligini oshiradi;
- Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish: Energiya yo'qotilishini kamaytirish atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarining kamayishiga olib keladi;

Samarqand viloyatida elektr energiyasidan yanada samarali foydalanish va yo'qotishlar oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi, bunda quyidagilar bo'lishi kerak:

☒ Infratuzilmani modernizatsiya qilish: Elektr tarmoqlari hamda podstantsiyalarni modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilishga sarmoya kiritish zarur;

☒ Elektr energiyasini hisobga olishning zamonaviy tizimlarini joriy etish: iste'mol qilingan elektr energiyasini yanada aniqroq hisobga olishni ta'minlaydigan yangi elektr hisoblagichlarni o'rnatish zarur;

☒ Aholining energetik madaniyatini yuksaltirish: Aholi o'rtasida elektr energiyasidan ehtiyotkorona foydalanish muhimligini tushuntirishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni olib borish zarur;

☒ Elektr energiyasini o'g'irlashga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish: Elektr energiyasini o'g'irlashga qarshi kurashish, jumladan, tarmoqlarga ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash bo'yicha reydlar o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur;

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, yuqorida ko'rib chiqilgan holatlardan kelib chiqqan holda har birimiz elektr energiyasidan oqilona foydalanishimiz kerak. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish har birimizning burchimiz. Elektr energiyasi tejamkorligi va samaradorligi oddiy tushunchalar bilan shakllangani bilan energetika, shaharsozlik, uy-joy kommunal tizimiga sanoat korxonalaridan to kichik ishlab chiqarish korxonalarigacha zamonaviy, raqamli texnologiyada ishlaydigan jihozlar kirib kelsa biz energiyani tejashga erishamiz.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xoshimov F.A., Taslimov A. D. Energiya tejamkorlik asoslari / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Voriz nashriyot».-192 b.
2. Abdumalikovich, Bektemirov Abdukhamid, and Karimov Amirjon Allam o'g'li. "Supporting Small Business and Private Entrepreneurship." *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521) 2, no. 3 (2024): 102-105.
3. <https://het.uz/oz/>